



# TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**ISMATOV Abrorjon**

*NamDU*

*tayanch doktoranti*

## GLOBALLASHUV JARAYONLARINING INSON SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Globallashuv jarayonining jadallashuvi, inson taraqqiyoti, uning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi ijtimoiy hayot mazmunining shakllanishi, rivojlanishi bevosita axborotlar tizimining, virtual reallikning samarali yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq.

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T. Levittning 1983 yilda "Garvard biznes revyuu" jurnalida e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan edi. Unda aytilishicha, Globallashuv – transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli – tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni"[4].

Shuningdek, ushbu tushunchani siyosatshunoslik, iqtisodiyot, sotsiologiya va falsafaga oid tadqiqotlarda o'ziga xos mazmun-mohiyati ochib berilgan. Rossiyalik tadqiqotchi A.G. Kosichenko ham globallashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: "Globallashuv ko'p o'lchamli jarayon, u o'z ta'sir doirasiga turli usul va vositalar bilan barcha sohalarni qamrab oladi" [5] deb ta'rif beradi. 2005 yilda "Akademiya" nashriyoti tomonidan O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun nashr qilingan "Milliy istiqloq g'oyasi" darsligida alohida "Globallashuv jarayonlarida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi" mavzusi kiritilgan. Unda mazkur atamaga "Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir" [1] degan ta'rif berilgan.

Faylasuf S.Otamuratov "Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik" kitobida shunday deydi: "Jamiyat va insonlar taraqqiyotining asosi bo'lgan iqtisodiyotning globallashuvi oxirgi manzilga yetib, yer yuzida yagona iqtisodiy makon batamom qaror topganidan keyin ma'naviyat, axloq va millatlar ham iqtisodiyotning hukmiga bo'ysunmaslikning imkoniyati qolmaydi va yagona ma'naviyat, yagona axloq va yagona millatning shakllanish jarayonining oldini olib bo'lmaydi" [2].

Globallashuv – bu mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning kengayishi va o'zaro bog'lanishini anglatadi. Ushbu jarayon, inson salohiyatini oshirishda bir qator muhim ahamiyatga ega:

- ta'lim tizimlarining bir-biriga yaqinlashishini va xalqaro standartlarga moslashishini ta'minlaydi. Bu, talabalar va mutaxassislarga global bilim va ko'nikmalarni olish imkonini beradi;
- o'zaro almashuv dasturlari va stajirovkalar, insonlarning yangi bilimlarni va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga yordam beradi;
- yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi va ish joylarini yaratadi. Bu, odamlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi;
- xalqaro investitsiyalar, ta'lim va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilishi, inson salohiyatini oshiradi;
- turli mamlakatlardagi insonlarni bir-biri bilan bog'laydi. Bu, ijtimoiy tarmoqlar va aloqalarni kuchaytiradi, natijada o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshiradi;
- turli madaniyatlar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi, yangi fikrlar va g'oyalarni yaratishga yordam beradi;

- yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni tezda qabul qilish imkonini beradi. Bu, insonlarning malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

- innovatsiyalar orqali, inson salohiyati oshadi, chunki yangi texnologiyalar ko'nikma va bilimlarni talab qiladi;

- sog'liqni saqlash tizimlariga yangi texnologiyalar va bilimlarni olib keladi, bu esa insonlarning salomatligini yaxshilashga yordam beradi;

- sog'liq va ta'lim sohalaridagi yutuqlar, insonlarning umumiy hayot sifatini oshiradi;

- ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu, insonlarning salohiyatini oshirishga yordam beradi;

- xalqaro tashkilotlar orqali, inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish imkoniyatlari oshadi;

Globalashuv sharoitida internet tarmog'i yangi media vositasi sifatida jamiyat barqaror taraqqiyotidagi o'rni oshib borishi bilan birga, uning norasmiy kommunikativ axborotlar tizimidagi zarurligi kengaydi.

Bu jarayonda qadriyatlarining o'zi rivojlanadi va shaxsning barcha ma'naviy salohiyatining namoyon bo'lishi sifatida namoyon bo'ladi. "Darhaqiqat, globalashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongini zaharlaydigan, ma'naviy dunyosiga xavf soladigan mafkuraviy tahdidlar kirib kelishi kuchaymoqda. Shunday ekan, bunday tahdidlarning oldini olishga oid amaliy taklif-xulosalar ishlab chiqish o'ta dolzarbdir" [3].

Hozirgi globalashuv va axborot bosimi muttasil oshib borayotgan davrda ayrim xorij davlatlar hududida zararli ta'sirga ega bo'lgan yoshlar faoliyatini tasvirlovchi, ularning tajovuzkorona, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg'unchilik mazmunidagi g'oyani tashviqot qiluvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan internet saytlarining soni ortib bormoqda.

"Raqamli jamiyatda globalashuv, axborotlashtirish, virtualizatsiya jarayonlari asosan odamlar hayotini belgilaydi. Bu hodisalar tevarak-atrofdagi voqelikni tubdan o'zgartiradi, hozirgi davrdagi inson taqdirining "qiyinchiliklarini" belgilab beradi va aytish mumkinki, konstruktiv ravishda yangi dunyo va yangi shaxsni shakllantiradi. Konstruktivizm inson, tabiat va jamiyatni o'zgartirish texnologiyalarining mafkuraviy asosidir. Konstruktivizm sun'iyini o'stirish, yaratilganing tabiiydan ustunligini tasdiqlash bilan tavsiflanadi. Zamonaviy konstruktivizmning asosi tabiat va jamiyat ustidan inson kuchining keskin va global o'sishida yotadi. Axborotlashtirish, globalashuv va virtualizatsiya jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lib, noosferaning asosini tashkil etadi. Raqamli jamiyat noosfera jamiyatidir. Globalashuv - bu dunyoning maxsus integratsiyasi, yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi tufayli global insonlar hamjamiyatining, mega-jamiyatning shakllanish jarayoni. Bu yerda gap inson mavjudligining yangi universal sifati haqida ketmoqda, u muloqot va o'zaro aloqaning yangi axborot texnologiyalari orqali shakllanadi"[6]. Inson salohiyati, O'zbekiston raqamli rivojlanishining asosiy omilidir. Raqamlashtirish sohasida ulkan strategiya va dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan inson resurslarining mavjudligi va sifatiga, IT va raqamli transformatsiya sohasida eng so'nggi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga bog'liq.

Bugungi globalashuv, turli madaniyatlar, qadriyatlar va an'analarning o'zaro yaqinlashuvi kontekstida milliy davlatchilikni, aholi an'anaviy qadriyatlarini saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, mazmunan boyitish siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Inson salohiyatidan samarali foydalanish va malakasini oshirish iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishning asosi hamda innovatsiyalarni joriy etilishini muhim omili hisoblanadi

Globalashuv inson faoliyatining, harakat amaliyotining barcha jihatlarini qamrab olgan. Globalashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar, innovatsiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va sog'liqni saqlash sohalaridagi yutuqlar, odamlarning salohiyatini yanada kuchaytiradi. Ushbu jarayonlar, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash orqali, global miqyosda yaxshiroq kelajak uchun imkoniyatlar yaratadi. Globalashuv, insonlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda, global hamjamiyatning bir qismi sifatida rivojlanishlariga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Миллий истиқлол ғояси. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик Т. «Академия», 2005, 81 б
2. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик /Иккинчи нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. 25-бет.
3. Мадраҳимова Ф. Заволга элтувчи“маданият”//. – Тафаккур-2013. 4-сон Б. 88.
4. Баҳодир Зокир. Глобаллашув зиддиятлари.- Тафаккур. 1-сон, 27 б.
5. Гринин.Л.Е Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. М.: №1, 2005, с. 815.
6. Рюмина М.Т. Цифровое общество и проблема человека. – DOI 10.31249/scis/2020.00.06 // Научно-исследовательские исследования. – 2020. – № 2020. – С. 79-89.